

INGLIZ TILIDA SOME VA ANY NOANIQ OLMOSHLARI IFODALAGAN SINTAKSEMALAR PARADIGMATIK QATORI

Saitmuxamatova Xushnudabonu G'olib qizi¹

¹ Samarqand Davlat Chet tillar instituti

Egamnazarov Qobil Abdunazarovich¹

¹ Ilmiy rahbar

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:17.11.2024

Revised: 18.11.2024

Accepted:19.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

sintaksemalar,
paradigmatik tahlil, some,
any, no, somebody,
someone, something,
anybody, anyone,
anything, no one, nobody,
nothing.

Bu maqola ingliz tilidagi noaniq gumon olmoshlarining gapdagi o'rinlari, ishlatilishi va ular ifodalagan sintaksemalarning paradigmatik qatori haqida malumot beradi. Tilshunoslarning gapning sintaktik tahliliga turlicha yondashuvlaridan shunday xulosa chiqadiki, har bir gap bo'lagining morfologik va sintaktik xususiyatlari o'rganilganda, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishi, leksik birliklarning qanday shaklda bo'lishi va qanday sintaktik aloqa asosida boshqa sintaktik birliklar bilan bog'lanishi inobatga olinishi kerak, deb hisoblaymiz. An'anaviy grammatikalarda ingliz tili misolida gaplar sintaktik sathda tahlil qilinganda, sintaktik birliklar so'roq qo'yish usullari yordamida gap bo'laklariga, ya'ni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratiladi.

KIRISH. Ingliz tilida Some va Any bir oz, bir qancha, ozgina, bironta deb tarjima qilinadi va otlar oldidan ishlatiladi. Some – bir oz deb tarjima qilinib otlar oldidan ishlatiladi va faqat darak gaplarda ishlatiladi.

1.I have some money to spend – Menda ishlatgani ozgina pul bor

2.There are some tomatos on the table – Stol ustida bir oz pomidorlar bor

3.I need some money – menga ozgina pul kerak

Any – bironta, bir qancha deb tarjima qilinib odatda inkor va so'roq gaplarda ishlatiladi.

1. Do you have any money? – Sizda ozgina pul bormi?

2.I don't have any money – Menda umuman pul yo'q.

3. There is not any bread – U yerda bironta ham non yo'q.

Some ni ushbu xolatda so'roq gapda ishlatish mumkin:

1. Would you like some coffee? – bir oz cofe xoxlaysizmi?

2. Would you want some sugar? – Ozroq shakar istaysizmi?

1. Some olmoshi bo'lishli gaplarda, any olmoshi esa bo'lishsiz, ko'chirma va o'zlashtirma umumiy so'roq gaplarda va shart gaplarda olmosh-sifat va olmosh-ot sifatida ishlatiladi.⁹

2. Some va any (bir qancha, biroz, hech qanday) ma'nosida ishlatiladi:

a) ko'plikdagi otlar oldida olmosh-sifat bo'lib keladi va ko'pincha o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi:

He asked me some questions. U mendan (bir nechta) savollar so'radi.

Have you got any interesting books? Qiziq kitoblaringiz bormi?

He did not make any mistakes in his dictation. U diktantida (hech qanday) xato qilmadi.

Izoh: Some ba'zan donalab sanaladigan birlikdagi ot oldida noaniq artikl ma'nosida ham ishlatiladi:

I read it in some book (a book). Men buni bir kitobda o'qiganman.

b) olmosh-ot bo'lib kelib ko'plikdagi ot o'rnida ishlatiladi:

He asked me for some stamps, but I hadn't any. U mendan marka so'radi, lekin menda.

I want some matches. Have you got any? Menga gugurt kerak edi. Gugurtingiz bormi?

3. Some va any biroz, ozroq, hech qancha ma'nosida ishlatiladi:

a) donalab sanalmaydigan otlar oldidan olmosh-sifat bo'lib keladi va o'zbek tiliga tarjima qilinmasligi ham mumkin:

Give me some water, please. Iltimos, menga (ozroq) suv bering.

Have you bought any sugar? Shakar sotib oldingizmi?

b) olmosh-ot bo'lib keladi va donalab sanalmaydigan otlar o'rnida ishlatiladi:

I want some paper. Please give me some. Menga qog'oz kerak. Iltimos, menga ozroq (qog'oz) berib turing.

Give me some hot water, please. Iltimos, ozroq qaynoq suv bering.

I'm sorry, there isn't any in the kettle. Kechirasiz, choynakda qaynoq suv yo'q.

4. Some taklif va iltimosni ifodalagan umumiy va maxsus so'roq gaplarda ishlatiladi:

⁹ Akbulatova A.M. Roditeliniy podej v strukture predlojeniy sovremennogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad: LOIYa, 1984. – 21 s.

Why didn't you buy some cheese? Nima uchun pishloq sotib olmadingiz?

Won't you have some tea? Choy ichmaysizmi?

Can I have some cold water? Ozroq sovuq suv olsam bo'ladimi?

5. Some (ba 'zi) ma'nosida olmosh-sifat bo'lib ko'plikdagi ot oldidan va olmosh-sifat bo'lib ko'plikdagi ot o'rnida ishlatiladi:

Some trees remain green all the year round. Ba'zi daraxtlar butun yil davomida yashil bo'lib turadi.

6. Some sonlarning oldida qariyb, taxminan, chamasi ma'nosida ishlatiladi:

There were some fifty people there. U yerda qariyb ellik kishi bor edi.

We waited some twenty minutes. Biz taxminan yigirma minutlar kutdik.

7. Any (istagan) ma'nosida bo'lishli va so'roq gaplarda birlikdagi donalab sanaladigan va donalab sanalmaydigan otlar oldidan ishlatiladi:

You may come at any time that is convenient to you. Siz o'zingiz uchun qulay bo'lgan istagan paytda kelishingiz mumkin.

Any inkor gaplarda, umumiy so'roq gaplarda hamda "har qanday, xohlagan" degan ma'noda darak gaplarda ishlatiladi.

I didn't read any books. Men hech qancha kitob o'qimadim.

Do you know any foreign languages? Biror xorijiy tilni bilasizmi?

You may read any book. Sen xohlagan kitobni o'qishing mumkin.

Any of miqdorni bildiradi.

Does any of you speak English? Birortangiz inglizcha gapirasizmi?

Some / Any birikmalari

Insonlar uchun	Predmet uchun	Joy uchun
----------------	---------------	-----------

Some	Someone	
------	---------	--

somebody	Something	Somewhere
----------	-----------	-----------

Birov	Biror narsa	Biror yerda
-------	-------------	-------------

Any	Anyone	
-----	--------	--

anybody	Anything	Anywhere
---------	----------	----------

birov		
-------	--	--

hech kim		
----------	--	--

har kim	hech narsa	
---------	------------	--

biror narsa		
-------------	--	--

har qanday narsa	hech yerda	
------------------	------------	--

biror yerda		
-------------	--	--

har qanday yerda

Some, any olmoshlaridan yasalgan olmoshlar

1. Some, any olmoshlariga one, body va thing so'zlari qo'shilib someone, somebody (allakim, kimdir, biror kishi), anyone, anybody (biror kishi, hechkim), something (allanarsa, biror narsa), anything (biror narsa, hech narsa) gumon olmoshlari yasaladi. Bu olmoshlar har doim olmosh-ot bo'lib keladi va gapda ega yoki to'ldiruvchi bo'ladi.¹⁰

2. Someone, somebody, something bo'lishli gaplarda, anyone, anybody, anything esa bo'lishsiz, ko'chirma, o'zlashtirma umumiy so'roq gaplarda va shart gaplarda ishlatiladi:

Somebody (someone) is knocking at the door. Allakim eshikni qoqayapti.

Give me something to read. Menga o'qishga biror narsa bering.

There isn't anybody (anyone) there. U yerda hech kim yo'q.

There isn't anything in the box. Qutida hech narsa yo'q.

If anything happens, ring me up immediately. Agar biror narsa sodir bo'lsa, zudlik bilan menga qong'iroq qiling.

3. Someone, somebody va something olmoshlari some olmoshiga o'xshab maxsus so'roq gaplarda, taklif va iltimosni ifodalagan umumiy so'roq gaplarda ishlatiladi:

Why didn't you ask somebody to help you? Nima uchun biror kishidan yordam berishini so'ramadingiz?

Will you have something to eat? Biror narsa yeysizmi?

Will someone help me? Biror kishi menga yordam beradimi?

4. Anyone, anybody, anything olmoshlari any olmoshiga o'xshab istagan kishi, istagan narsa ma'nosida bo'lishli gaplarda ham, so'roq gaplarda ham ishlatiladi:

Anybody can do that. Buni istagan kishi qila oladi.

You may play anything you like. Istagan yoqtirgan o'yiningizni o'ynashingiz mumkin.

I z o h: Some, any olmoshlari where bilan birikib somewhere, anywhere ravishlarini yasaydi:

Did you go anywhere yesterday? Kecha biror yerga bordingizmi?

¹⁰ Antipina N.A. Sostavnie sintaksicheskie elementi "modaliniy glagol + infinitiv" i modalnie konstruksii v strukture predlojeniy sovremennogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad, 1974. – 20s.

No, I didn't, but I shall go somewhere tomorrow. Yo'q, lekin ertaga biror yerga boraman.

1. No olmoshi birlik va ko'plikdagi donalab sanaladigan otlar oldidan olmosh-sifat bo'lib keladi.

No birlikdagi donalab sanaladigan otlar bilan kelgan not...a va donalab sanaladigan ko'plikdagi otlar va donalab sanalmaydigan otlar bilan kelgan not...any ma'nosini beradi. Gapda no bo'lganda fe'l bo'lishli shaklda bo'ladi, chunki ingliz tilida bir gapda faqat bitta inkor bo'ladi.

I have no ticket. = I haven't a ticket. Menda bilet yo'q.

I found no mistakes in your translation. Men tarjimangizda hech qanday xato topmadim.

2. No olmoshi body, one, thing so'zlari bilan birikib nobody, no one, nothing inkor olmoshlarini yasaydi va har doim olmosh-ot sifatida ishlatiladi. Bu olmoshlardan keyin kelgan fe'l bo'lishli shaklda ishlatiladi, chunki ilgari aytib o'tilganidek, ingliz tilida bitta gapda faqat bitta inkor bo'lishi mumkin:

We saw nobody there. Biz u yerda hech kimni ko'rmadik.

We read nothing about it. Biz bu haqda hech narsa o'qiganimiz yo'q.

1. Much, many olmoshlari olmosh-sifat va olmosh-ot bo'lib keladi.

2. Much, many olmoshlari ko'p ma'nosida olmosh-sifat bo'lib keladi.

Much donalab sanalmaydigan otlar oldidan, many donalab sanaladigan otlar oldidan ishlatiladi:

I haven't much work to do today. Mening bugun qiladigan ishim ko'p emas.

Many people attended the meeting. Yig'ilishda ko'p odam qatnashdi.

3. Much va many ko'pchilik, ko'pi ma'nosida olmosh-ot bo'lib keladi va ulardan keyin ko'pincha of predlogi ishlatiladi:

Much of what you say is true. Aytganlaringizning ko'pi to'g'ri.

Much of the work was done before dinner. Ishning ko'pi tushlikdan oldin qilindi.

4. Much va many, asosan, so'roq va bo'lishsiz gaplarda ishlatiladi:

Have you much work to do today? Bugun qiladigan ishingiz ko'pmi?

I haven't many French books. Mening fransuzcha kitoblarim ko'p emas.

Some ni asosan darak gaplarda ishlatiladi, tarjimasi "biroz, bir qancha":

I'm going to buy some clothes. Men bir qancha liboslar sotib olmoqchiman.

There's some milk in the fridge. Muzlatgichda biroz sut bor.

We made some mistakes. Biz biroz xatolar qildik.

Biroq: biror nimani taklif qilinganda odatda some ishlatiladi (any emas).

A: Would you like some coffee? A: Biroz qahva hohlaysanmi?

B: Yes, please.

B: Ha, iltimos.

yoki biror narsani muloyimlik bilan so'ralganda:

A: Can I have some soup, please? A: Biroz sho'rva olsam bo'ladimi, iltimos

B: Yes. Help yourself.

B: Ha. Bemalol.

Any inkor hamda so'roq gaplarda ishlatiladi:

I'm not going to buy any clothes. Men umuman kiyim sotib olmoqchi emasman.

Does he have any friends? Uning birorta do'sti bormi?

some va any otlarsiz (otlarni gapda ikki marta takrorlamaslik uchun) ham ishlatiladi:

I didn't take any pictures, but Jessica took some. (= some pictures)

Birorta ham rasm olmadim, ammo Jessika birqanchasini oldi. (=birqancha rasmlar)

You can have somecoffee, but I don't want any. (= any coffee)

Siz qahvani ichishingiz mumkin, ammo men umuman hohlamayman. (= umuman qahva)

I've just made some coffee. Would you like some? (= some coffee)

Men biroz qahva tayyorladim. Biroz hohlaysizmi? (= biroz qahva)

'Where's your luggage?' 'I don't have any.' (= any luggage)

'Bagajing qayerda?' 'Menda umuman yo'q.' (= umuman bagaj)

Something (nimadir) / somebody (kimdir) (yoki someone) darak gaplarda va muloyimlik bilan so'rashda (asosan 'Would' bilan) so'roq gaplarda ishlatiladi:

She said something. U nimadur dedi.

I saw somebody (or someone). Men kimdurni ko'rdim.

Would you like something to eat? Yeyishga birornima hohlaysizmi?

Anything (inkor – hechnima, so'roq – nimadur) / anybody (or anyone) – (inkor – hechkim, so'roq -kimdur) so'roq hamda inkor gaplarda ishlatiladi:¹¹

She didn't say anything. U hechnima demadi.

I didn't see anybody (or anyone). U hechkimni ko'rmadi.

Are you doing anything tonight? Bugun kechasi biror nima qilasanmi?

¹¹ Asadov R.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili // Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD). diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 53b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbulatova A.M. Roditelniy podej v strukture predlojeniy sovremennogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad: LOIYa, 1984. – 21 s.
2. Antipina N.A. Sostavnie sintaksicheskie elementi “modalniy glagol + infinitiv” i modalnie konstruksii v strukture predlojeniy sovremennogo angliyskogo yazika. Avtoref. diss... kand. filol. nauk. -Leningrad, 1974. – 20s.
3. Asadov R.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili // Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD). diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 53b.
4. Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка.– Москва: Высшая школа, 1976.– 319 с.
5. Ильиш Б.А.История английского языка. –Москва: Высшая школа, 1963. – 120 с.
6. Имамназаров Т.А. К функционально-семантической характеристике глагольных аналитических конструкций// Функция и семантика лингвистических единиц, –Ташкентский государственный педагогический институт им.Низами, 1983. – С. 109-113.